



XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDA IJRO HOKIMYATINING FAOLIYATI USTIDAN PARLAMENT NAZORATI

Muhammadjonov Abrorjon Akmaljon o`g`li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

Aborma1997@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorijiy mamlakatlar tajribasida parlamentning ijro hokimiyati faoliyatini baholashda parlament nazorati funksiyasi tahlil qilingan.. Shuningdek, parlament nazoratining turli modellari va shakllari atroflicha yoritilgan. Shu bilan birgan parlament nazoratini huquqiy asoslar hamda javobgarlik turlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Parlament so`rovi, deputat so`rovi, interpellyatsiya, "hukumat soati" tergov qo`mitalari, ishonch yoki ishonchsizlik votumi, parlament tekshiruvi kabi shakllarini turli xorijiy mamlakatlar misollarida tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** parlament nazorati, huquqiy asos, javobgarlik, interpellyatsiya, hukumat soati, parlament so`rovi va deputat so`rovi.

Abstract: This article analyzes the function of parliamentary control in evaluating the performance of the executive power of the parliament in the experience of foreign countries. Also, various models and forms of parliamentary control are covered in detail. At the same time, a comparative legal analysis of the legal bases and types of responsibility of the parliamentary control was carried out. The forms of parliamentary inquiry, deputy inquiry, interpellation, "government watch" investigative committees, vote of confidence or no confidence, parliamentary inspection are analyzed in the examples of different foreign countries.



Key words: parliamentary control, legal basis, accountability, interpellation, government clock, parliamentary inquiry and deputy inquiry.

Kirish. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar tajribasida qonun chiqaruvchi organ hamda davlat organlarining faoliyatini baholashda parlament nazorati muhim funksiyani amalga oshirmoqda.. S.Erniyazivaning fikricha, “xorijiy amaliyoti tahlili qonun chiqaruvchi hokimiyat tizimida parlament nazoratining turli modellari va shakllari mavjudligini dalolat bersada, boshqaruv shakllaridan qat’iy nazar barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda davlat hokimyatining kengroq vakolatlariga ega ekanligi uning ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda muhim hisoblanadi[1]. A.Latifovning fikricha, xorijiy mamlakatlarda parlament nazoratining modellari davlat boshqaruv shakliga mos ravishda uchga (parlamentar, prezidentlik va aralash) bo‘linadi[2].

Xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda amaliyotda parlament nazoratining quyidagi shakllarini uchratishimiz mumkin: parlament so‘rovi, deputat so‘rovi, interpellyatsiya, parlament eshituvlari, hukumat soati, ishonch yoki ishonchsizlik votumi va parlament tekshiruvi kabi shakllar amaliyotda qo‘llanilmoqda. Yevropa mamlakatlarning huquqiy tizimining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, parlamentar boshqaruv shakliga ega bo‘lgan mamlakatlarda parlament nazoratining hukumatga ta’siri hamda ahamiyati boshqa boshqaruv shakldagi (misol uchun aralash boshqaruvi shakldagi davlar)larga nisbatan kuchliroq ta’sirga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Asosiy qism. Parlament so‘rovi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning qonunchiligida hukumatga nisbatan og‘izaki hamda yozmda shaklda amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun Italiyada parlament so‘roviga yozma javob yuborilgan vaqtdan boshlab, 20 kun ichida taqdim etilishi kerak. So‘rov og‘izaki shaklda amalga oshirilgan bo‘lsa, palata majlisida hukumat a’zosiga 5 daqiqa vaqt ajratilgan. Hukumat tomonidan so‘rovga berilgan javoblar keyinchalik palataning majlislarining hisobotlarida e’lon qilib boriladi. Shuningdek, Avstriya



Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakat Federal Kengash(Avstriya parlamenti) ijro faoliyatining barcha faoliyat sohalari bo'yicha savollar berish huquqiga egadir. Portugaliya Konstitutsiyasida parlament majlislarida deputatlarga hukumat va uning faoliyati bo'yicha og'izaki hamda yozmda so'rovlar berish huquqi mustahkamlab qo'yilgan. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar qonunchiligida samarali qo'llanilayotgan parlament so'rovining eng keng tarqalgan shakllaridan biri bu- interpellyatsiyasidir.

Interpellyatsiya aksariyat Yevropa mamlakatlarida qonunchiligida samarali qo'llanilmoqda. Serbiya Konstitutsiyasiga ko'ra,hukumat faoliyati yuzasidan kamida 50 nafar xalq deputatlari interpellyatsiya yuborishi mumkin. Bunda hukumat 30 kun ichida javob berishi lozim. Xalq skupshinasi javobni muhokama qiladi hamda unga umumiy deputatlar sonining ko'pchilik qismi bilan ovoz beriladi. Agarda hukumat yoki uning a'zosining interpellyatsiyasiga salbiy baholansa, bunda ishonchsizlik votumi bildirish masalasi kun tartibiga qo'yiladi[3]. Italiyada interpellyatsiya parlament nazoratining murakkab shakli bo'lib,deputatlarning hukumatning aniq maqsad va faoliyati yuzasidan yozma so'rovidir. Bunda so'rovga javob palata majlisida eshitiladi. Biroq ushbu instituti oqibatida parlament hukumatga nisbatan jiddiyroq chora qo'llanilishi yoki iste'foga sabab bo'lmaydi[4]. Shuningdek, Italiyada hukumatga ishonchsizlik rezolyutsiyasining alohida instituti mavjud hamda hukumatning siyosiy kursi bo'yicha takliflar, e'tirozlar va direktivalar mavjuddir.

Aytib o'tish joizki, agar hukumat tomonidan tegishli asoslar va dalillarga ega bo'lgan taqdirda parlament tomonidan yo'llangan so'rov hamda interpellyatsiyasiga javoban raddiya qaytarishi mumkin. O'tkazilgan so'rovlar, interpellyatsiyalar hamda ularning natijalari haqida keng ommani xabardor qilish maqsadida Italiya parlamentining axborotnomasida tegishli ma'lumotlar muntazam ravishda chop etib boriladi.

“Hukumat soati”- parlament eshituvlari instituti Avstriyada har majlisning boshlanishida, Slaveniyada oyda bir marta, Avstriya va Kanada kuniga bir marta o'tkaziladi. Chexiya, Estoniya, Fransiya, Germaniya, Vengriya, Norvegiya va Shvetsiyada parlament sessiyalari davomida haftasiga bir marta savollar beriladi. Buyuk Britaniyada dushanbadan



payshanbagacha dastlabki ishlar va shaxsiy masalalar ko'rib chiqilgandan so'ng 1 soat mobaynida hukumat soati o'tkaziladi[5]. Germaniyada "Hukumat soati"(Fragestunde) haftasiga bir marta umumiy 180 daqiqa o'tkaziladi[6]. Shuningdek, har bir deputat hukumatdan ikkita og'izaki savollar so'rash huquqiga ega. Hukumatga beriladigan savollar qisqa hamda aniq va parlamentar savollar debatga o'zgarib ketmasligi uchun vaqt reglamentiga alohida e'tibor beriladi. (Misol uchun Finlandiyada 1daqiqa, Kanada yarim daqiqa vaqt reglamenti belgilangan) Shuningdek, bir qator mamlakatlarda haftalik savollardan tashqari "dolzarb savollar" berish amaliyoti ham mavjud, misol uchun(GFR) tajribasida. Dolzarb savollar berishda muayyan vazirga palataga kelishi va dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan savollarga javob berishi talab qilinadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, parlament nazorati faoliyatining eng samarali hamda sinalgan shakllaridan biri bu- konstitutsiyasida belgilangan "tergov qo'mitalari"hisoblandi. Chunki, Bundestat a'zolarining tashabbusi bilan tashkil etiladi(bundestat a'zolarining to'rtidan bir qismi tashabbusi bilan). Eng muhim jihati shundaki tergov qo'mitalariga sudlar hamda ma'muriy organlar tomonidan har tomonlama ko'maklashiladi. Shuningdek, tergov qo'mitalarining qarori sud tartibida atroflicha hamda har tomonlama ko'rib chiqiladi.

Buyuk Britaniyada ijro etuvchi hokimiyatni tashkil etuvchi vazirlar parlament oldida, parlament orqali esa jamoatchilik oldida hisobot beradi. Vazirlar hukumat siyosati uchun ham jamoaviy mas'uliyat, ham o'z bo'limlari ishi uchun individual javobgarlikka ega. Britaniyaning vazirlar kodeksiga(1997-yil) vazirlar kutilmoqda; jamoaviy javobgarlik tamoyillariga rioya qilish. Ular parlament oldida o'z bo'limlarining siyosati, qarorlari va xatti-harakatlari va agentliklarning keyingi qadamlari uchun hisob berishlari va javob berishlari shart. Nazoratning asosiy qismi parlamentning 30 ta qo'mitasi orqali amalga oshiriladi, ular orasida palataning davlat hisobi qo'mitasiga muxolifat a'zosi raislik qiladi. Vazirlar parlamentga to'g'ri ma'lumot berib, har qanday tasodifiy xatoni imkon qadar tezroq tuzatishga majburlar. Vazirlar bila turib parlamenti chalg'itmoqda, bosh vazirga iste'foga chiqishni taklif qilishlari kutiladi. Ular parlament va jamoatchilik bilan iloji boricha ochiq



bo'lishi kerak, jamoat manfaatlarini himoya qiladi. Jamoalar palatasi hukumat ishini turli mexanizmlar, jumladan palatadagi vazirlarni so'roq qilish va tanlangan qo'mita tizimi orqali tekshirishda muhim rol o'ynaydi. U hukumatni iste'foga majburlash huquqiga ega. Jamoalar palatasida muhim masala bo'yicha mag'lubiyatdan so'ng hukumat iste'foga chiqishi yoki tarqatilishini ko'rishi shart. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, ishonchli harakatdagi mag'lubiyat iste'foga chiqish yoki tarqatib yuborish uchun yagona harakatdir[7].

Umuman olganda Buyuk Britaniyada ijro hokimiyati ustidan parlament nazorati mamlakat konstitutsiyaviy asosining muhim jihati hisoblanadi. Buyuk Britaniyada parlament boshqaruv tizimiga amal qiladi, ya'ni ijro etuvchi hokimyat(hukumat) qonun chiqaruvchi hokimyat(parlament)oldida javobgardir. Ijro etuvchi hokimyat ustidan parlament nazoratining bir necha asosiy jihatlari mavjud bular quyidagilardan iborat: savol vaqti; parlament qo'mitalarini ijro hokimyatini tekshirishi; ishonch hamda ishonchsizlik ovozlari orqali parlament hukumatga nisbatan ishonch va ishonchsizlik bildirish huquqiga ega, qonunchilik va tekshirish, ya'ni parlament ijro hokimyatini tartibga soluvchi qonunlar va qoidalarni qabul qilish vakolatiga ega, byudjet nazorati kabi o'ziga xos jihatlarga ega. Ta'kidlash joizki, Buyuk Britaniyada parlament nazorati asrlar davomida rivojlanib borgan va huquqiy hamda konstitutsiyaviy o'zgarishlar asosida shakllanishda davom etmoqda.

Ishonchsizlik votumi instituti chet el mamlakatlarida hukumatning jamoaviy javobgarligining huquqiy vositasidir. Germaniya Konstitutsiyasining 67-moddasiga ko'ra, hukumat javobgarligining eng muhim vositasi"ishonchsizlik votumi" orqali Federal kanslerni lavozimidan ozod etishdir. Italiya Konstitutsiyasiga ko'ra ishonchsizlik rezolyusiyasi palata deputatlarining 1/10 qismi tomonidan imzolanishi lozim[8]. Shunday holatni Fransiya Konstitutsiyasida ham ko'rish mumkin. Chexiya qonunchiligida mazkur jarayon biroz murakkab bo'lib,hukumatga nisbatan ishonchsizlik bildirish taklifi uchun kamida 50ta deputatning ovozi hamda uni qabul qilish uchun umumiy deputatlarning yarmidan ko'proq qismi vakolatlidir[9].



A.Kerimovning fikricha, hukumatning parlament oldida javobgarligi va unga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish huquqi quyidagi ijobiy natijalarni beradi: 1. Hukumat rahbari mustaqil siyosiy figuraga aylanib, parlament ishonchiga erishgan holda, davlat hokimiyati tizimida o'z o'rniga ega bo'ladi; 2. Hukumatning javobgarligi yanada ortadi, hukumat ham prezident, ham parlament oldida javobgar bo'lib, bu uning faoliyatiga samarali ta'sir qiladi; 3. Bunday holat prezident faoliyatiga ham ijobiy ta'sir etib, u parlament ishonchini qozongan bosh vazirga ega bo'ladi, buning natijasida, parlament-hukumat-prezident o'rtasidagi ziddiyatlar oldi olinib, prezident ijro hokimiyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi [10]. Umuman olganda xorijiy mamlakatlarda ijro hokimiyatining parlament oldidagi javobgarligining huquqiy tavsifi turlichadir. Jumladan GFR da "konstruktiv ishonchsizlik votumi" mavjuddir. Hukumat iste'fosi uchun parlament a'zolarining ko'pchilik ovozinig o'zi yetarli bo'lmaydi. Ushbu holatda parlament yangi bosh vazirning nomzodini saylashi lozim bo'ladi. Shuningdek, ko'plab rivojlangan mamlakatlarning qonunchligida deputatlarning qabul qilgan tanbeh rezolyutsiyasi hamda uning oqibatida parlamentning ishonchsizlik votumi uchun ovoz berishda vaqt intervali mavjuddir. Xususan, Italiyada-uch kun, Fransiyada-ikki kun, Ispaniyada-besh kunni tashkil qiladi. Ushbu vaqt oralig'ida hukumat tomonidan o'zaro muzokaralar orqali parlamentga ta'sir o'tkazishga urinishlar amalga oshiriladi.

Xulosa. Xorijiy mamlakatlarda ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda eng keng tarqalgan hamda samarali usullarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: 1. Interpellyatsiya; 2. "Hukumat soati" 3. Tergov qo'mitasi fikrimizcha bugungi kunda yuqoridagi 3ta parlament nazorati shakli Yevropa mamlakatlarida o'z samrasini ko'rsatmoqda. Ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda quyidagi parlament nazorati shakllarini taklif qilamiz:

1. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar qonunchiligida samarali qo'llanilayotgan parlament so'rovining eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lgan interpellyatsiyasi. Ushbu parlament nazorat shakli deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida qo'llanilmoqda.



2. “Hukumat soati”- parlament eshituvlari instituti. Bugungi kunda Avstriyada har majlisning boshlanishida, Slaveniyada oyda bir marta, Avstriya va Kanada kuniga bir marta o‘tkaziladi. Chexiya, Estoniya, Fransiya, Germaniya, Vengriya, Norvegiya va Shvetsiyada parlament sessiyalari davomida haftasiga bir marta savollar beriladi. Buyuk Britaniyada dushanbadan payshanbagacha dastlabki ishlar va shaxsiy masalalar ko‘rib chiqilgandan so‘ng 1 soat mobaynida hukumat soati o‘tkaziladi.

3. Tergov qo‘mtalari: GFR da parlament nazoratini amalga oshirshda eng samarali hamda parlament nazoratini muvofiqlashtiruvchi alohida organ sifatida faoliyat yuritmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. С.Эрниязива Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи кенгеси ва Вазирлар Кенгаши ўзаро муносабатларининг конституциявий-ҳуқуқий мақоми. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори...автореф-Тошкент:ҚҚДУ,20189-Б.5.
2. А,Латифов Проблемы совершенствования парламентского контроля в Узбекистане: Дисс. ... канд . юрид .наук.- Ташкент,2002.-С.26.
3. 1 КОНСТИТУЦИЯ СЕРБИИ/HTTPS://WORLDCONSTITUTIONS.RU/?P=369
4. Опыт работы парламентов зарубежных стран Научно-практическое пособие// Ответственный редактор Ф. Э .Мухамедов// Институт мониторинга действующего законодательства при Президенте Республики Узбекистан. Ташкент.: ИМДЗ,2013.-С.16.
5. Shane Martin, Oliver Rozenberg. The Roles and Function of Parliamentary Questions// 1st Edition2012 RoutledgeP.168.
6. Bertelsmann Stiftung study: Hierlemann,Sieberer.Sichtbare Demokratie-Debatten und Fragestunden im Bundestag.Gutersloh,2014№ 4-P3.
7. Ferede,A.N. (2018) Beijing Law Review. <https://doi.org/20159-4627>
8. <https://legalns.com/download/books/cons/italy.pdf>
9. https://legalns.com/download/books/cons/czech_repub lic.pdf
10. Керимов А. Д .Проблемы конституционной реформы и государственного строительства в России. –М.: Аванта+,2001.-С.17-18.